

# **МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:**

## **ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**

**SJIF 2024 = 5.444**

**Том 2, Выпуск 7, 31 Июль**

**PIRLS xalqaro tadqiqoti**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Boshlang'ich ta'lif fakulteti 4 bosqich talabasi**

**Pardaboyeva Nargiza**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada PIRLS xalqaro tadqiqoti, uning maqsad va vazifalari, har necha yilda o'tkazilishi, unda kimlar qatnashishi, qanday muammolarni hal qilishi hamda davlatlar nima sababdan PIRLS tadqiqotida qatnashishlari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** PIRLS xalqaro tadqiqoti, maqsad, vazifa, boshlang'ich sinf o'quvchilari, xalqaro baholash dasturi, muammo, o'qish savodxonligi.

### **Kirish**

Dunyo miqyosida IEA ( Ta'lif sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi) tomonidan tashkil etilgan PIRLS tadqiqotlarida qatnashish uchun tayyorgarlik olib borilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan ham xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarimizning yuqori o'rirlarni egallashlari uchun alohida e'tibor qaratilgan.

**PIRLS xalqaro tadqiqoti nima?** PIRLS – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. PIRLS (inglizcha: Progress in International Reading Literacy Study) — bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lif sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023  
SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 7, 31 Июль**

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyatidir.

**PIRLS xalqaro tadqiqoti necha yilda o'tkaziladi?**

Tadqiqot davriy ravishda - har besh yilda bir marta o'tkaziladi va hozirgacha besh marta: 2001, 2006, 2011, 2016 va 2021-yillarda o'tkazilgan.

PIRLS o'qish ta'limini takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi.

**Davlatlar PIRLS dan qanday maqsadlarda foydalanadilar?**

global miqyosida ta'lim tizimi darajasidagi yutuqlarning tendensiyalarini kuzatib borish;

yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan ta'lim siyosatining ta'sirini kuzatib borish; ta'limning zaif nuqtalarini belgilash va o'quv islohotini amalga oshirish;

PIRLS ma'lumotlarini tadqiq va tahlil qilish orqali o'qitish va o'qishni takomillashtirish;

adolatlilikni kuzatish yoki qo'shimcha sinflarda o'quvchilarni baholash kabi tegishli ishlarni olib borish;

o'qishni va o'qitishni o'rganish.

**PIRLSning maqsadi nima?**

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular:

diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;

to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish;

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023  
SJIF 2024 = 5.444  
Том 2, Выпуск 7, 31 Июль**

kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish;  
g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.

**Tadqiqot matnlari nechta so'zdan iborat?**

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta, ePIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi.

Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o'quvchiga unchalik tanish bo'lmaydi.

Tadqiqotning har bir ishtirokchisiga matnlar va ular yuzasidan topshiriqlar berilgan daftar beriladi. Har bir matnga 12-15 ta savol-topshiriqlar ilova qilinadi.

**PIRLS xalqaro tadqiqotining asosiy vazifasi nima?**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish malakasini takomillashtirishdan iboratdir. PIRLS tadqiqotlarida, asosan 4-sinf o'quvchilari ishtirok etadi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o'quvchilarining tanlanishi shu bilan e'tiborliki, aynan o'qishning to'rtinchi yilida o'quvchilar o'qishning yuqori darajasiga ega bo'lishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. Tadqiqotlarda qo'llaniladigan matnlarni turli joydagi maktab o'qituvchilari o'quvchilarning bilimi va qiziqishlarini inobatga olgan holda tavsiya qilishadi. Matnlar odatda, ulardan anglashilgan mazmunni turli usulda shakllantirish yordamida, ularda aks etgan fikr-mulohazalarni qay tartibda tashkillashtirilgani va taqdim etilganiga qarab farqlanadi. PIRLS tadqiqotlarida tavsiya etilgan matnlarni o'qish va matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish natijasida o'quvchi matndan anglashilgan ma'noni tez ilg'ab oladigan, matn ustida mulohaza yuritadigan, samarali o'qish strategiyasidan xabardor va o'qish ustida tafakkur

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:  
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**  
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**  
**SJIF 2024 = 5.444**  
**Том 2, Выпуск 7, 31 Июль**

qiladigan shaxs sifatida gavdalanadi. PIRLS tadqiqoti uchun tavsiya etilgan matnlar o‘quvchilarni ongli fikrlashga, o‘z fikrlarini kengaytirgan holda mushohada yuritishga xizmat qiladi. Tadqiqot uchun tanlangan matn o‘quvchilar uchun unchalik tanish bo‘lmasligi lozim. Har bir tanlangan matn o‘quvchilarning yosh doirasi hamda fikrlash qamrovini hisobga olgan holda tanlanadi.

**PIRLS tadqiqotlari qanday muammolarni hal qilishga qaratilgan?**- ta’lim sohasidagi dunyo ustuvorliklarini aks ettiruvchi obyektiv o’lchovlar va vositalarni ishlab chiqish;- mamlakat o‘quv jarayonini tashkil etish samaradorligini qiyosiy baholash;- tadqiqot natijalariga ta’sir ko’rsatgan kontekstual omillarni aniqlash;- xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan dalillarga asoslangan ma'lumotlarga ega bo’lish. O’qish savodxonligining asosi matnlar bilan to’liq ishlash uchun zarur bo’gan o’qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o‘quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir. PIRLS tadqiqotida O’zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta’lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o‘quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

**Xulosa** o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi paytda maktablarda tahsil olayotgan o‘quvchilar kelgusida mamlakatimizning ertasi bugunidan-da porloq bo‘lishini kafolatlovchi yoshlardir. Ularning o‘z qiziqishlarini inobatga olgan holda to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish esa pedagoglarning vazifasidir. Har tomonlama bilimga ega bo‘lgan, salohiyatli, innovatsion g‘oyalarga boy bo‘lgan pedagog esa har qayerda o‘z qadr-qimmatiga ega. Xalqaro taqdriqotlar talablariga javob beradigan o‘quvchilarni tarbiyalash, ularga zamon talablariga mos kelguvchi bilimlarni

# **МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

**Researchbib Impact factor: 11.79/2023**

**SJIF 2024 = 5.444**

**Том 2, Выпуск 7, 31 Июль**

ulashish kelgusida o‘tkaziladigan tadqiqotlarda mamlakatimizning yuqori o‘rinlardan joy olishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). <<Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririysi. Toshkent –2019.

2 <https://www.uzreport.news/society/mamlakatimiz-oquvchilari-pirls-2021-xalqaro-baholash-dasturida-ishtirok-etadi>

3 <https://cyberleninka.ru/article/n/pirls-tadqiqoti-uchun-topshiriqlar-tayyorlash-va-ular-ustida-ishlash-texnologiyasi/viewer>